“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e'tirof etish tartiblari

Zaynabxon Urinova,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchqo‘rg‘on tumanlararo sudi sudyasi
e-mail: z.urinova1983@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ–937-sonli “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati, uni qabul qilishning huquqiy asoslari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning yer hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini e’tirof etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, qonunning amaliy ahamiyati, uning fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rni hamda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati yoritilgan.

Калит сўзлар. o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi, mulk huquqi, yerga bo‘lgan huquq, ko‘chmas mulk, huquqlarni e’tirof etish, bir martalik umumdavlat aksiyasi

Аннотация. В данной статье анализируются содержание и значение Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-937 от 5 августа 2024 года «О признании прав на самовольно занятые земельные участки, а также на здания и сооружения, возведенные на них», правовые основания его принятия и механизмы признания прав граждан и юридических лиц на земельные участки и объекты недвижимости. Освещаются практическое значение закона, его роль в защите прав и законных интересов граждан, а также важность правового просвещения населения.

Ключевые слова. самовольно занятый земельный участок, право собственности, земельные права, недвижимое имущество, признание прав, единовременная общегосударственная акция

Annotation. This article analyzes the essence and significance of the Law of the Republic of Uzbekistan No. ORQ-937 dated August 5, 2024 “On Recognition of Rights to Arbitrarily Occupied Land Plots and Buildings and Structures Constructed Thereon”, the legal grounds for its adoption, and the mechanisms for recognizing the rights of individuals and legal entities to land plots and real estate objects. The article also examines the practical

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

importance of the law, its role in protecting the rights and legitimate interests of citizens, and the significance of legal awareness and public legal education.

Keywords. arbitrarily occupied land plot, property rights, land rights, real estate, recognition of rights, one-time nationwide campaign

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqarolar va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berdi.

Davlat boshqaruv organlari tomonidan chiqarilayotgan qonun va qonunosti normativ huquqiy hujjatlar “inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirilganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda fuqarolar va yuridik shaxslar o‘zining buzilgan huquqlarni himoya qilish maqsadida sudga murojaat etar ekan ularning qanday huquqlari mavjudligi va huquqlarini buzilish omillari nimalarda namoyon bo‘lishi haqida o‘zlarida yetarli bilim va tushunchalarni shakllantirish, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sudlarda ko‘rib hal etilayotgan nizolarning aksariyati bevosita yerga oid nizolar hisoblanib, mazkur nizolarni kelib chiqish omillari ma'muriy organlarning qonunga xilof harakatlari bilan birga fuqarolarning huquqiy bilim va ko‘nikmalari yetarli bo‘lmaganligi oqibatida ular o‘zlarining yer va mulkka nisbatan huquqlaridan foydalanmaganliklarida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ular tomonidan qonuniy va boshqa asoslarda egallangan shuningdek o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e'tirof etish maqsadida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi PF-5421-son “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-iyundagi 461-sonli“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida” 2018-yil 20-apreldagi PF-5421-son farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari haqida”gi qarori qabul qilingan.

Mazkur Prezident farmoniga muvofiq mulk huquqini e'tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi e'lon qilinib, 2019-yil 1-mayga qadar davom etishi belgilangan.

Belgilangan muddatga qadar tegishli tashkilotlar va mas'ullar Farmon ijrosini amalga oshirganlar. O‘tgan davr mobaynida e'lon qilingan umumdavlat aksiyasida qatnashmagan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e'tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish yuzasidan huquqiy asoslarga ehtiyoj vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e'tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-sonli qonuni bilan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e'tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari belgilab berildi.

Ushbu qonun – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan 2018-yil 1-mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

– fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident bo‘lgan yuridik shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan yer uchastkasi maydonidan 2018-yil 1-mayga qadar ortiqcha egallagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

– o‘zboshimchalik bilan qurilgan yakka tartibdagi uy-joylarga bo‘lgan mulk huquqini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko‘chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan e'tirof etish mumkin deb topilganligi hollariga yoki uni e'tirof etish rad etilganligi yoxud arizalarning ko‘rib chiqilishi bir martalik umumdavlat aksiyasining muddati o‘tganligi sababli yakuniga yetmaganligi hollariga;

– 2021-yil 8-iyunga qadar tuman (shahar) hokimining qaroriga ko‘ra qonunchilik hujjatlariga muvofiq fuqarolarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga yoki rezident bo‘lgan yuridik shaxslarga ajratilgan, tasdiqlash masalasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi yoki tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan ko‘rib chiqilmagan yer uchastkasiga;

– fuqarolarning bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylariga hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

– 2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining yashash uchun mo‘ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismlari joylashgan yer uchastkasiga;

– xususiylashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasiga;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

– fuqarolarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning va rezident bo‘lgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq mulk huquqi e'tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasiga nisbatan huquqlarni e'tirof etish asoslari va tartibini belgiladi.

Fuqarolarning manfaatida qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarini ijrosi ta'minlanishi uchun keng jamoatchilikka ularning mazmun mohiyati to‘g‘risida tushuncha berish, qonun va qonunosti hujjatlarni ijrosi yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, ularning tartib-taomillari to‘g‘risida targ‘ib qilish huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va yuridik sohada foliyat olib borayotgan soha mutasaddilarining zimmasidadir.